

T.X. ZOVIDOV, A.A. AKMALOV

MATEMATIKA DARSLARI

5-SINF

O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA

**«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2012**

UDK: 372.851(072)

BBK 74.262.21

Z-85

Taqrizchilar:

A.Qarshiyev – fizika-matematika fanlari nomzodi, Toshkent viloyati PKQTMOI tabiiy va aniq fanlar kafedrasi dotsenti

M.M.Shaniyazova – Toshkent shahar Sirgʻali tumani XTB matematika fani metodisti

O.Abdusattorov – Namangan viloyati PKQTMOI tabiiy fanlar taʼlimi kafedrasi oʻqituvchisi

**Metodik qoʻllanma Respublika Taʼlim Markazi
huzuridagi matematika fani boʻyicha ilmiy metodik
kengashning 2011-yil 29-apreldagi yigʻilish qarori bilan
nashrga tavsiya etilgan**

Zoxidov, T.X.

Z-85 **Matematika darslari. 5-sinf (Text):** oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma/T.X.Zoxidov, A.A.Akmalov; T.: Tafakkur, 2012. – 208 b.

I. Zoxidov, T.X., II. Akmalov, A.A.

ISBN 978-9943-24-060-5

Ushbu metodik qoʻllanma 5-sinf «Matematika» darsligi va uzviylashtirilgan dastur asosida yozilgan boʻlib, oʻqituvchilarga va pedagogika oliy oʻquv yurtlari talabalariga moʻljallangan. Unda oʻquv jarayonini tashkil etish, matematika darslarida axborot-kommunikatsion, innovatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanish, oʻquvchilarning davlat taʼlim standartlari asosida oʻzlashtirishi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarini baholash, matematikaga oid qiziqarli masalalar, qoʻshimcha mashqlar, didaktik materiallar toʻplami berilgan.

**UDK: 372.851(072)
BBK 74.262.21**

ISBN 978-9943-24-060-5

© «TAFAKKUR», 2012

SO‘ZBOSHI

Umumta’lim maktablari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi muhim o‘zgarishlarga hamisha o‘z munosabatini bildirib kelmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimiga qo‘yilgan talablar mustaqil fikrlay oladigan, milliy merosimizni qadrlaydigan, ijodkor, axloqli, har tomonlama kamol topgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Bu talablarni amalga oshirish hozirgi zamon o‘qituvchisidan tinmay ijodiy izlanishni, o‘qishga yangicha munosabat va fidoyilikni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari hamda «Davlat ta’lim standartlari» talablaridan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishning umumiy maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun maktab ta’limini rivojlantirishga oid qarorlar, Davlat umummilliy dasturi asosida matematikadan takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, yangi darsliklar yaratilib, yangilangan ta’limda o‘quvchini har tomonlama rivojlantirish uchun o‘qituvchiga zamonaviy dars berish talabini qo‘ymoqda.

«5-sinf. Matematika darslari. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma» matematikadan takomillashtirilgan hamda uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosida tuzilgan yangi “Matematika” darsligiga muvofiq holda yozilgan bo‘lib, o‘qituvchiga dars berish jarayonida yordam berishi ko‘zda tutilgan. Metodik qo‘llanmadan matematika o‘qituvchisi yoki iqtidorli o‘quvchi foydalanayotganda darslik uning yonida bo‘lishi zarur.

I BOB

MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINING O‘QUV-ME‘YORIY HUJJATLARI

1. NAMUNAVIY TAQVIM-MAVZU REJALASHTIRISH

TAQVIM-MAVZU REJA
5-SINF «MATEMATIKA»
(haftasiga 5 soatdan, jami 170 soat)

Darslar tartibi	Bo‘lim va mavzular	Soat
	I chorak	45
	I. Natural sonlar va shkalalar	
1	Natural son tushunchasi	1
2-3	Natural sonlarning yozilishi va o‘qilishi	2
4-5	Kesma. Kesmaning uzunligi	2
6-7	Kesmalarni taqqoslash. Uzunlik o‘lchov birliklari	2
8	Uchburchak	1
9-10	Tekislik, to‘g‘ri chiziq va nur	2
11-12	Shkalalar va koordinatalar. Koordinatalar (sonlar) nuri	2
13-14	Natural sonlarni taqqoslash. Katta, kichik	2
15-16	Masalalar yechish. Tarixiy ma‘lumotlar	2
17	1-nazorat ishi	1
18	Masalalar yechish	1
	II. Natural sonlarni qo‘shish va ayirish	
19-21	Natural sonlarni qo‘shish va uning xossalarini koordinatalar nurida tushuntirish	3
22-24	Natural sonlarni ayirish va uning xossalari	3
25-27	Sonli va harfli ifodalar	3
28	Masalalar yechish	1
29	2-nazorat ishi	1
30	Masalalar yechish	1
31-33	Qo‘shish va ayirish xossalarining harfiy ifodasi	3
34-36	Tenglamalar. Masalalar yechish	3
37	3-nazorat ishi	1

38	Masalalar yechish. Al-Xorazmiyning «Algorizmi hind hisobi haqida» asari	1
	III. Natural sonlarni ko'paytirish va bo'lish	
39-40	Natural sonlarni ko'paytirish va uning xossalari	2
41-43	Natural sonlarni bo'lish	3
44-45	Qoldiqli bo'lish	2
	II chorak	35
46-47	Ifodalarni soddalashtirish	2
48	Masalalar yechish	1
49	4-nazorat ishi	1
50-51	Amallarni bajarish tartibi	2
52-54	Natural sonlar ustida to'rt amalga doir misol va masalalar	3
55-56	Sonning darajasi. Sonning kvadrati va kubi	2
57	Masalalar yechish	1
58	5-nazorat ishi	1
59	Masalalar yechish	1
	IV. Yuz va hajmlar	
60-61	Formulalar	2
62-64	To'g'ri to'rtburchak va kvadrat yuzi formulalari	3
65-67	To'g'ri burchakli parallelepiped va kub.	3
68-70	Hajm o'lchov birliklari. To'g'ri burchakli parallelepiped va kub hajmi formulalari	3
71-72	Masalalar yechish	2
73	6-nazorat ishi	1
74	Masalalar yechish. Tarixiy ma'lumotlar	1
	V. Oddiy kasrlar	
75-76	Aylana va doira	2
77-78	Ulushlar	2
79-80	Kasrlarni taqqoslash	2
	III chorak	50
81-82	To'g'ri va noto'g'ri kasrlar	2
83-85	Bir xil maxrajli kasrlarni qo'shish va ayirish	3

86	Masalalar yechish	1
87	7-nazorat ishi	1
88	Masalalar yechish	1
89-90	Bo'lish va kasrlar	2
91-93	Aralash kasrlar	3
94-96	Aralash sonlarni qo'shish va ayirish	3
97-98	Masalalar yechish	2
99	8-nazorat ishi	1
100	Masalalar yechish. Tarixiy ma'lumotlar	1
	VI. O'nli kasrlar	
101-102	O'nli kasrlarning yozilishi va o'qilishi	2
103-104	O'nli kasrlarni taqqoslash	2
105-107	O'nli kasrlarni qo'shish va ayirish	3
108	Sonning taqribiy qiymati	1
109-110	Sonlarni yaxlitlash	2
111	Masalalar yechish	1
112	9-nazorat ishi	1
113	Masalalar yechish. Tarixiy ma'lumotlar	1
	VII. O'nli kasrlarni ko'paytirish va bo'lish	
114-116	O'nli kasrni natural songa ko'paytirish	3
117-119	O'nli kasrni natural songa bo'lish	3
120	O'nli kasrlarni ko'paytirish	1
	IV chorak	40
121-123	O'nli kasrlarni ko'paytirish xossalari	3
124	Masalalar yechish	1
125	10-nazorat ishi	1
126	Masalalar yechish	1
127-130	O'nli kasrga bo'lish	4
131-134	O'rta arifmetik	4
135-136	Masalalar yechish	2
137	11-nazorat ishi	1
138	Masalalar yechish. Tarixiy ma'lumotlar	1

O‘zaro dars kuzatish	34
Metodik tadbirlar (pedagogik kengash, metod birlashma yig‘ilishlari va h.k.)da ishtirok etish	34
3. Tashkiliy– pedagogik faoliyat	118
Sinf jurnalini to‘ldirish, choraklik baholarni va o‘quvchilarning yillik reytingini chiqarish	50
O‘quvchilar tabellarini to‘ldirish	34
Boshqa tashkiliy – pedagogik tadbirlar (ota- onalar yig‘ilishlari, mikrouchastkada ishlash va h.k.)	34

Izoh: Fan o‘qituvchisi yil davomida (43 ish hafta) haftasiga 36 soatdan ishlaydi. Maktabda o‘quv jarayoni yiliga 34 hafta davom etib, uning dars soatlari haftasiga 20 soatni tashkil etadi. O‘qituvchining shaxsiy rejasini tuzishda uning malaka oshirish kurslarida bo‘lish davri, shuningdek, ko‘zda tutilmagan ishlarni bajarish (xizmat safarlari, kasallik varaqasida bo‘lgan davri, jamoat topshiriqlarini bajarish va h.k.)ga sarflangan vaqti hisobga olinadi va yillik ish yuklamasiga kiritiladi.

3. O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

1. Darsga tayyorgarlik ko‘rish.

O‘quvchilarning muhim tarkibiga ega bo‘lgan va sinf deb atalgan guruhida aniq maqsadni ko‘zlab belgilangan vaqtda o‘qituvchi rahbarligida o‘quv jarayonining tashkil etilishi dars deb ataladi.

Dars jarayoni samaradorligi o‘qituvchining darsga puxta tayyorlanishi bilan belgilanadi. E‘tiborsizlik bilan rejalashtirilgan va puxta tayyorlanmagan, o‘quvchilar imkoniyatlari bilan uyg‘unlashmagan dars samarasiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun birinchi navbatda har qanday o‘qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

Darsga tayyorlanish bu bir butun dars loyihasiga tizimli ketma – ketligini ishlab chiqish bo‘lib, ayni paytda pirovard natijasini ta‘minlaydigan o‘quv – tarbiya jarayonidir.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi quyidagicha olib boriladi:

1. O‘qituvchining o‘z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi.

2. O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi.

3. O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi o‘quv yili boshlanishi oldidan va yillar davomida amalga oshiriladi. Tayyorgarlik ko‘rishda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

– o‘quv yili boshlanishiga qadar o‘quv dasturini o‘rganish, tushuntirish xatini qaytadan o‘qib chiqish, mavzu bo‘yicha qo‘yilgan Davlat ta‘lim standarti talablarini o‘rganib chiqish, o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma ba malakalarni aniqlash kabi vazifalarni belgilab olish;

– faniga oid ilmiy, metodik va ommabop adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;

– faniga oid yangi nashr qilingan ko‘rgazma materiallarni, o‘quv tajriba jihozlarini o‘rganish;

– ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, tahlil qilish va o‘z ustida ishlash orqali bilimni kengaytirish;

– o‘z fani sohasida eng yangi ma‘lumotlarni to‘plash, muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlash.

O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi uning fan bo‘yicha tuzgan taqvim – mavzu rejasida aks etgan. Taqvim – mavzu reja fan o‘qituvchisi tomonidan tuzilib, metodbirlashma yig‘ilishida muhokama qilinadi, ma‘qullangandan so‘ng ma‘muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

O‘qituvchining har bir darsga sifatli tayyorlanishi darsni tashkil etish, o‘quvchilarga beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni qay darajada o‘zlashtirishini ta‘minlaydi. Darsga tayyorlanish algoritmi (qoidalar majmui) barcha omillar, holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo‘lishi zarur. Shuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilish lozim.

Darsga tayyorlanishdan oldin quyidagilarga e‘tiborini qarash zarur:

Darsda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun avvalo, uning idrokini, xotirasini kuchaytirish asosida o‘quv materiallarining xotirada saqlanishini ta‘minlash zarur. Darsning maqsadiga erishish uchun o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlash, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasini hisobga olish va darsni jihozlashga jiddiy e‘tibor berish, o‘quv materiallar o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun ta‘limning metod va usullarini o‘rinli qo‘llash ham muhimdir. Dars o‘qituvchiga juda katta mas‘uliyat yuklaydi. Shunga ko‘ra atroflicha tayyorlanish tajribali o‘qituvchi uchun ham yosh o‘qituvchi uchun ham zarur. O‘qituvchi o‘z vazifasini sifatli bajara olishi uchun o‘quvchilar shaxsini har tomonlama o‘rganishi shart. O‘quvchi shaxsini o‘rganish oddiygina tadbir emas, balki ta‘lim-tarbiyadan ko‘zlangan maqsadga erishishning eng muhim yo‘lidir.

Shuning uchun birinchi navbatda sinf jamoasining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olish lozim:

- o‘quvchilarning bilimi va o‘zlashtirish saviyasi;
- o‘quvchilarning fanga bo‘lgan munosabati;
- sinfning ishlash tezligi;
- bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi;
- har xil turdagi o‘quv jarayoniga munosabati;
- o‘quvchilarni intizomi.

Ikkinchi navbatda esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur:

- nerv tizimi turlarining shakllanganligi darajasi;

- o‘zaro fikr almashuvi;
- hissiyotga beriluvchanlik;
- yangi materialni o‘quvchilar tomonidan qabul qilishni boshqarish;
- yomon kayfiyatni tarqatish yo‘llarini bilish;
- o‘zining bilim va qobiliyatiga ishonish;
- har-xil ta‘lim vositalaridan foydalanishni bilish (O‘TB,AKT).

O‘qituvchi oldida turgan vazifalardan biri o‘quvchilarga beriladigan ta‘lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko‘tarish talab qilinadi. Demak, o‘qituvchi har bir darsni rejalashtirganda darsni puxta o‘tkazilishini ta‘minlash uchun kerakli darajada dars ishlanmasini batafsil tuzishi, aniq vaziyatni e‘tiborga olib darslarni turli xil shaklda o‘tkazishi lozim.

O‘qituvchi tomonidan kundalik darsga tayyorgarlikda quyidagi bosqichlarni amalga oshirilishi zarur:

- taqvim-mavzu reja asosida dars mavzusini, maqsad va vazifalarni, dars shakli va turlarini, tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash;
- o‘quvchi darsga bilib olishi va eslab qolishi zarur bo‘lgan asosiy mazmunini farqlay olish;
- darsning strukturasi, turi, metodlari va o‘qitish usullarini belgilab olish;
- fanlar aro bog‘lanishni aniqlash va undan darsda foydalanish yo‘llarini belgilab olish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsdagi faoliyatlarini rejalashtirish;
- darsning didaktik vositalarini tanlash (rasmlar, tarqatma materiallari, jadvallar, chizmalar va boshqalar);
- o‘quvchilarning darsdagi mustaqil faoliyatlarini hajmini belgilab olish;
- darsdagi olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash usul va shakllarini belgilab olish;
- uy vazifasining hajmini belgilab olish;
- darsni yakunlash shakllarini belgilab olish;
- belgilangan talablar asosida darsning ishlanmasini yozish.

II. Dars ishlanmasini tayyorlash

Har bir dars:

- ma‘lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilishi va puxta rejalashtirilgan bo‘lishi;
- mustahkam ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan tarbiyali yo‘nalishga ega bo‘lishi;
- turmush va amaliyot bilan bog‘langan bo‘lishi;
- xilma-xil metod va usullardan, vositalardan keng va unumli, o‘rinli foydalangan holda olib borilishi;
- o‘quvchilarni qunt bilan ishlashlarini ta‘minlaydigan bo‘lishi;



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1182> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1182> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1182>